Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 20-noyabr, № 239 (8862) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ULKAN ISHONCH VA MAS’ULIYATNING QADRIGA YETISH, UNI HALOL VA SODIQ XIZMAT BILAN OQLASH BARCHAMIZNING MUQADDAS BURCHIMIZDIR

Toshkent shahrida 19-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi yalpi majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.





Tadbirni Markaziy saylov komissiyasi Raisi Zayniddin Nizomxo‘jayev ochdi.

Davlatimiz madhiyasi yangradi.

Yalpi majlis ishini tashkil etish uchun kotibiyat va elektron ovoz berish nazorati bo‘yicha guruh tuzildi, kun tartibi tasdiqlandi. Markaziy saylov komissiyasi Raisi Oliy Majlis Senatiga saylov natijalari to‘g‘risida axborot berdi.

Bu jarayon yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda takomillashtirilgan milliy saylov qonunchiligiga binoan oshkora va adolatli o‘tgani ta’kidlandi. Asosiy Qonunimizga muvofiq Senat a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 4 kishidan saylandi. Yana 9 nafar senator O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlandi.

Yalpi majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

Davlatimiz rahbari yangi tarkibdagi Senat a’zolarini yuksak ishonchga sazovor bo‘lganlari bilan samimiy tabrikladi.

Yuqori palataning avvalgi tarkibi mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo‘shgani ta’kidlandi. Oxirgi besh yilda yuqori palata tomonidan 106-marta hisobotlar eshitilgan, ijro organlariga 1 ming 300 ta so‘rov kiritilgan. Parlamentning xalqaro maydondagi nufuzi ham sezilarli darajada oshgan. O‘tgan davrda xorijiy davlatlar bilan parlamentlararo do‘stlik guruhlari soni 26 tadan 73 taga yetgan.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Senat tarkibi ixchamlashib, uning a’zolari soni 100 nafardan 65 nafarga qisqardi. Ayni vaqtda senatorlarning vakolatlari va mas’uliyati bir necha barobar oshdi. Xususan, yuqori palataning parlament nazorati va bir qator muhim davlat organlarini shakllantirishdagi ishtiroki sezilarli ravishda kengaytirildi. Senatga ham qonunchilik taklifi kiritish huquqi berildi.

Prezident bugun dunyodagi vaziyatga yig‘ilganlar e’tiborini qaratib, tinchlik va birlikning ahamiyatini ta’kidladi.

– Mana shunday g‘oyat tahlikali vaziyatda biz faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga erisha olamiz.

2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING BIRINCHI MAJLISIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli Senat a’zolari!

Qadrli do‘stlar!

Avvalo, siz, azizlarni yuksak ishonchga sazovor bo‘lib, Oliy Majlis Senati a’zosi etib saylanganingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, senator degan nom – yuksak va sharafli maqom, shu bilan birga, ulkan mas’uliyat ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Sizlar Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, erkin va farovon hayot yaratish yo‘lida bor bilim va tajribangizni, kuch va salohiyatingizni ishga solib, xalqimiz ishonchini oqlaysiz, deb umid qilaman.

Kuchli raqobat, adolat va oshkoralik ruhida o‘tgan saylovlar natijasida beshinchi chaqiriq Senatning tarkibi sifat jihatdan yuqori darajada shakllandi. Bugun sizlarning timsolingizda ko‘plab yetakchi soha va tarmoqlar vakillarini, taniqli siyosat, iqtisodiyot, ilm-fan va madaniyat namoyandalarini ko‘rib turganimdan xursandman.

Senatorlarimizning intellektual salohiyati haqida gapirganda, ularning har 3 nafaridan biri ilmiy darajaga ega ekanini alohida ta’kidlash kerak.

E’tiborlisi, Senat a’zolarining qariyb 27 foizi yoki 16 nafari xotin-qizlardir. Bu esa oila, onalik va bolalik, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, umuman, ijtimoiy masalalar bo‘yicha qonunchilik faoliyati hamda parlament nazoratini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

Mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan saylovlar davlatimiz va jamiyatimiz rivojida ham, mahalliy Kengashlar faoliyatida ham yangi davrni boshlab bermoqda, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Yangi saylangan mahalliy Kengashlar tarkibi va maqomiga ko‘ra oldingi holatdan mutlaqo farq qiladi. Ularning tarkibi qariyb 60 foizga yangilanib, 3 mingdan ortiq yurtdoshlarimiz ilk bor deputat bo‘lgani ham shundan dalolat beradi.

Ayniqsa, mahalliy Kengashlarda ayol deputatlar ulushi 32 foizga yetgani, 30 yoshgacha bo‘lgan deputatlar soni 3,5 karra oshib, 266 nafarni tashkil etgani Senat faoliyatini yangicha yondashuv va qarashlar asosida tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi majlisda ishtirok etayotgan senatorlarning aksariyati bir vaqtning o‘zida mahalliy Kengash deputatlari hamdir.

Barchamiz yaxshi tushunamiz, dunyo miqyosidagi vaziyat misli ko‘rilmagan darajada keskin va murakkab bo‘lib borayotgan hozirgi sharoitda yurtimiz tinchligi va ravnaqini ta’minlash har qachongidan ham ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Buyuk shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmud bobomiz aytganlaridek, qadimgi ajdodlar bitta to‘fon ko‘rgan bo‘lsa, bugun biz mingta to‘fon ko‘rmoqdamiz. Chindan ham, biz duch kelayotgan global muammolarning har biri bitta to‘fon emasmi?

Turli mintaqalardagi qonli to‘qnashuvlar, ekologik va texnogen fojialar, iqlim o‘zgarishlari, iqtisodiy inqirozlar, terrorizm va ekstremizm tahdidlari, qochoqlar muammolari tobora kuchayib borayotganini barchamiz ko‘rib-bilib turibmiz.

Mana shunday g‘oyat tahlikali vaziyatda biz faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga erisha olamiz. Hurmatli senatorlarimiz, mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlarimiz ana shu o‘tkir haqiqatni, o‘z zimmalaridagi ulkan mas’uliyatni chuqur anglab ish olib boradilar, deb ishonaman.

Qadrli do‘stlar!

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ulug‘vor vazifalarni amalga oshirishda yuqori palataning avvalgi tarkibi munosib hissa qo‘shdi. Ayniqsa, ayollar huquqlarini ishonchli ta’minlash, xotin-qizlar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish masalalarida Senat alohida faollik ko‘rsatdi. Oxirgi besh yilda yuqori palata tomonidan 106-marta hisobotlar eshitilgani, ijro organlariga 1 ming 300 ta so‘rov kiritilgani ham muhim ijobiy natijadir.

Parlamentning xalqaro maydondagi nufuzi ham sezilarli darajada oshib bormoqda. O‘tgan davrda xorijiy davlatlar bilan parlamentlararo do‘stlik guruhlari soni 26 tadan 73 taga yetdi. Senatimiz Osiyo xotin-qizlar forumi, Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlararo forumi kabi yirik xalqaro tadbirlarga mezbonlik qildi.

Parlamentlararo Ittifoq assambleyasining 150-sessiyasi, ya’ni yubiley anjumani kelgusi yili poytaxtimizda o‘tkazilishi ham alohida e’tiborga loyiq. Senat ushbu nufuzli xalqaro forumni ham yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazishga boshchilik qilsa, o‘ylaymanki, ayni muddao bo‘ladi.

Shu o‘rinda Senatda davlatlararo kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini ta’minlash bo‘yicha ilk bor ijobiy amaliyot yo‘lga qo‘yilganini ham ta’kidlash joiz.

Muhtaram senatorlar!

Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Senat tarkibi ixchamlashib, uning a’zolari soni 100 nafardan 65 nafarga qisqardi. Ayni vaqtda senatorlarning vakolatlari va mas’uliyati bir necha barobar oshdi. Xususan, yuqori palataning parlament nazorati va bir qator muhim davlat organlarini shakllantirishdagi ishtiroki sezilarli ravishda kengaytirildi.

Yana bir muhim masala. Ilgari senatorlarimiz nazorat tadbirlarida yoki saylovchilar bilan uchrashuvlarda qonunlarda aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha aniq vakolatga ega emas edi. Yangilangan Konstitutsiyamizda Senatga qonunchilik taklifini kiritish huquqi berilishi bilan masala o‘z yechimini topdi. Yangi saylangan senatorlarimiz bu jarayonlarda endi faol bo‘ladilar, deb ishonaman.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Endi yuqori palata o‘z faoliyatida to‘liq ishga solishi lozim bo‘lgan imkoniyat va yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tsak.

Konstitutsiyada Senat hududiy vakillik palatasi ekani belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, oldingi chaqiriqda Senat mahalliy Kengashlar bilan muloqot va hamkorlik borasida faqat dastlabki qadamlarni qo‘yganini tan olish lozim. Masalan, mahalliy Kengashlar 15 dan ortiq masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lsa-da, ularni tayyorlash, kelishish va tasdiqlash bo‘yicha yagona tartib haligacha ishlab chiqilmagan.

Yana bir masala. Mahalliy Kengashlarga ko‘p vakolatlar berib, maqomini ancha oshirdik. Lekin, afsuski, Kengash deputatlari tajriba almashadigan, malaka va amaliy ko‘nikmasini oshirib boradigan tizim yo‘lga qo‘yilmadi. O‘ylaymanki, ushbu masala ham Senatning yangi tarkibi e’tiboridan chetda qolmaydi.

Bundan tashqari, mahalliy Kengashlarning eng yaxshi tajribalarini boshqa hududlarda ham ommalashtirish, namunali Kengashlarni e’tirof etish ham yo‘lga qo‘yilsa, albatta, ishimizning samarasi yanada oshadi.

Asosiy Qonunimizga muvofiq Senat 10 dan ziyod yuqori martabali mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitadi. O‘tgan besh yilda bunday hisobotlar 100-martadan ortiq eshitilgan. Lekin hisobotlar ko‘p hollarda chuqur tahlillar o‘tkazmasdan ko‘rib chiqilmoqda. Masalan, jinoyatchilik masalasini olaylik. 2024-yilning 9 oyida mamlakatimiz bo‘yicha 45 mingdan ziyod shaxs jinoyatga qo‘l urgan. Andijon, Jizzax, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida o‘g‘rilik, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida firibgarlik, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida giyohvandlik jinoyatlari boshqa hududlarga nisbatan ko‘proq sodir etilgan.

Senat parlament nazorati doirasida mavjud ahvolni puxta tahlil qilib “qizil” hududlardagi vaziyatni nazoratga olsa, bu borada qat’iy so‘rov o‘tkazsa, o‘ylaymanki, vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin.

Qadrli yurtdoshlar!

So‘nggi yillarda keng ko‘lamli demokratik islohotlarimiz tufayli O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo‘yicha 8 pog‘ona, elektron hukumat bo‘yicha 18 pog‘ona, iqtisodiy erkinlik bo‘yicha 49 pog‘ona, logistika va innovatsiya bo‘yicha 10 pog‘ona yuqori ko‘tarildi.

Bunday muhim yutuqlarni e’tirof etgan holda biz ayni vaqtda bu yo‘nalishlarda hali yana ko‘p ish qilishimiz zarurligini yaxshi tushunamiz.

Bugungi kunda O‘zbekiston nufuzli xalqaro minbarlardan katta-katta tashabbuslarni ilgari surmoqda. Albatta, ularning mazmun-mohiyatini xalqimizga, xorijiy va mahalliy ekspertlarga yetkazishda senatorlarimiz faol bo‘lishlarini barchamiz istaymiz. Ammo, afsuski, ularning bu boradagi roli yetarli darajada sezilmayapti. Senatdagi xalqaro ishlarga mas’ul qo‘mita ham ushbu masalada ancha sust ishlayapti. Umid qilamanki, yuqori palatamizning yangi tarkibi mazkur yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilaydi.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

Bugungi tahlikali zamon barchamizdan o‘z ishimizni tanqidiy baholab, uni butunlay yangicha tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan Senat oldida turgan dolzarb vazifalarga qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchidan, yangilangan Konstitutsiyamizda Senat bilan Qonunchilik palatasi vakolatlaridagi takroriy holatlar bartaraf etilib, ularning har biriga tegishli vazifalar aniq ko‘rsatildi.

Endi Senat qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etishi zarur. Ayniqsa, qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy Kengashlarni keng jalb etish, har bir qonun bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

2

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATINING BIRINCHI MAJLISIDAGI NUTQI

1 E’tibor bering, Kengashlar deputatlari bu yil fuqarolar bilan uchrashuvlarda 22 mingdan ortiq muammolarni aniqlagan. Ya’ni joylardagi haqiqiy ahvolni ular yaxshi biladi. Shunday ekan, qonunlarni parlament qo‘mitalarida ko‘rib chiqishda, vazirlik va idoralar vakillari bilan emas, balki mahalliy Kengashlar deputatlari bilan ko‘proq ish olib borilsa, albatta adolatdan bo‘ladi. Chunki hududlarning o‘ziga xos xususiyat va imkoniyatlari hisobga olinmagan qonunlar quyi bo‘g‘inda samarali ishlamaydi.

Eng muhimi, qonunlarda hududiy va umumdavlat manfaatlari uyg‘un bo‘lishiga erishish lozim. Qonunlar ijrosini ta’minlashda mahalliy hokimlik yoki Kengashning imkoniyat va resursi qay darajada ekani doimo Senatning e’tibor markazida bo‘lishi zarur.

Ikkinchidan, mahalliy Kengashlar faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashish Senatning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak.

Mahalliy boshqaruvda sifat jihatdan yangi model joriy etilayotgan hozirgi vaqtda bu ayniqsa muhimdir. Xabaringiz bor, endi xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga hokimlar emas, balki deputatlar orasidan saylangan Kengash raislari boshchilik qiladi. Biz ushbu siyosiy islohot orqali xalqimizning 30 yillik orzusini ro‘yobga chiqardik, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi majlisda ishtirok etayotgan hududiy Kengashlar raislarini qutlab, ularga kelgusi faoliyatlarida yutuqlar tilayman.

Bu yil hokimlarning 33 ta vakolati Kengashlarga olib berildi, yana 17 ta vakolatni o‘tkazishni reja qilyapmiz. Misol uchun, ichimlik suvi tarifiga ustama, davlat obyektlari va bozorlarda ijara to‘lovlari kabi jami 7 turdagi mahalliy yig‘imlar miqdorini tasdiqlash vakolati ham mahalliy Kengashlarga o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Kengash so‘rovi va Kengash tekshiruvi kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytiriladi. Mahalliy Kengashlar tomonidan har yarim yilda qilingan ishlar bo‘yicha matbuot anjumanlari o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsa, o‘ylaymanki, bu ularning faoliyatida oshkoralik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi mamlakatimizda davlat boshqaruvini quyi bo‘g‘inga tushirish, ularni aholiga yaqinlashtirish jarayonlari ortga qaytmas tus olganidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda g‘oyat muhim bir jihatga e’tiboringizni qaratmoqchiman. 1992-yilgacha mamlakatimizda bir muddat mahalliy davlat hokimiyatiga ikki rahbar boshchilik qilgan holatlar ham bo‘lgan. Buni bugungi majlisda qatnashayotgan yoshi ulug‘ insonlar yaxshi eslaydi. O‘sha vaqtda ayrim rahbarlar dolzarb muammolarni hal qilib, hududni rivojlantirish o‘rniga obro‘ talashishdan ortmay qolgani ham bor gap.

Yaqin o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan bunday xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz va ularni takrorlashga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim. Umuman, hokim ham, Kengash raisi ham, avvalo, o‘z hududida yashayotgan aholi manfaatlarini yetakchi o‘ringa qo‘yib, bir jamoa bo‘lib ishlashi lozim.

Ayni paytda Konstitutsiyada belgilanganidek, tuman, shahar va viloyatlar miqyosida qonun hujjatlarini so‘zsiz ijro etish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirish uchun hokimlar mas’ul va javobgar ekanini alohida ta’kidlab aytmoqchiman.

Bu fikrlarni siz, hurmatli senatorlar bilan uchrashuvda bayon etayotganim bejiz emas. Chunki sizlar, bir tomondan, mahalliy Kengash deputatisiz, ikkinchi tomondan, Senat a’zosi sifatida zimmangizga mahalliy vakillik idoralariga ko‘maklashish vazifasi ham yuklatilgan.

Senat mahalliy hokimlik va Kengashlar hamjihat faoliyat yuritishi, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etishi uchun ularga yaqindan yordam berishi lozim.

2026-yildan boshlab tuman va shahar Kengashlariga ham hokimlar raislik qilmaydi. Bu ham muhim demokratik jarayon. Yuqori palatamiz bu islohotga ham jiddiy tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

Uchinchidan, yangilangan Konstitutsiya talabi asosida mahalliy Kengashlar yaqinda hokimlarni lavozimga tasdiqlashda ularning hududni rivojlantirishga oid dasturlarini ilk bor ko‘rib chiqib, ma’qulladi.

Xalqimiz deputatlardan bu dasturlardagi vazifalar ijrosi bo‘yicha deputatlik va Kengash nazoratini amalga oshirishda faol va tashabbuskor bo‘lishni kutmoqda.

Misol uchun, so‘nggi besh yilda yo‘l qurilishi sohasiga 48 trillion so‘m mablag‘ ajratilgan bo‘lsa-da, yo‘llarning 32 foizi yoki 66 ming kilometri hanuz ta’mirtalab ahvolda. Ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimiga esa 23 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilgan, lekin 747 ta mahalladagi qariyb 8 million aholi hali ham markazlashgan tarmoqqa ulanmagan. Markazlashgan isitish qozonlarining 8 foizi hamda issiqlik tarmoqlarining 14 foizi yaroqsiz ahvolda.

Shahar va shaharchalarning 826 tasi yoki 70 foizi, qishloq aholi punktlarining 5 ming 859 tasida yoki 78 foizida bosh reja yo‘q. Oqibatda joylarda pala-partish va noqonuniy qurilishlar ko‘payib bormoqda. O‘tgan yili ro‘yxatdan o‘tkazilmasdan qurilish boshlangan 1 ming 600 ta obyekt aniqlangan bo‘lsa, joriy yilning olti oyida bu ko‘rsatkich 1 ming 900 tadan oshgani ham buning dalilidir.

Bu esa mahalliy Kengashlar vazirlik va idoralarning quyi bo‘g‘inlari, ayniqsa, tuman va shahar bo‘linmalari bilan joylarda yangicha yondashuv asosida ishlashini taqozo etmoqda.

Aziz do‘stlar!

Ma’lumki, byudjet munosabatlari sohasida mahalliy Kengashlar juda katta vakolatlarga ega. Biz 2025-yilda yer, mol-mulk va aylanma soliqlarini to‘liq, daromad solig‘ining esa kamida 50 foizini tuman va shaharlarning o‘zida qoldirish bo‘yicha qaror qabul qilamiz. Bu orqali mahalliy Kengashlarning ushbu sohadagi roli yanada ortadi. Natijada 2025-yilda tuman va shaharlar byudjetlari daromadi 9,4 trillion so‘m yoki 47 foizga oshadi.

Misol uchun, birgina Xatirchi tumanining byudjetida daromadlar 69,4 milliard so‘m yoki salkam 2 barobar, Buxoro tumanida 29 milliard so‘m yoki 1,3 barobarga ko‘payadi.

Bu islohotlarimiz tuman va shaharlardagi mas’ul va mutasaddi shaxslar o‘z hududlaridagi muammolarni mustaqil hal etishi uchun imkoniyatni tubdan oshirish barobarida mahalliy Kengashlardan yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qiynayotgan masalalar yechimi bo‘yicha asosli tashabbuslarni ilgari surishni ham talab etadi.

Senat esa bu yo‘nalishlarda mahalliy Kengashlar faoliyatini tizimli tahlil qilib, ularga ko‘maklashib borishi zarur.

To‘rtinchidan, yangilangan Konstitutsiyamizda Senatga mahalliy Kengashlarning qarorlari qonunchilikka muvofiq bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha katta mas’uliyat yuklangan.

Birgina o‘tgan yilning o‘zida ushbu Kengashlar 34 ming 400 ta qaror qabul qilganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu qanchalik muhim vazifa ekani yaqqol ayon bo‘ladi. Senat bu borada ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylikni ta’minlash bo‘yicha samarali tizim yaratishi kerak. Bu yo‘nalishda yuqori palata huzurida yaqinda tashkil etilgan Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim bo‘ladi.

Beshinchidan, Senat qo‘mitalari – yuqori palataning yuragi, harakatlantiruvchi kuchidir.

Har bir qo‘mita joylardagi muammolarni o‘rganish va ularning yechimi yuzasidan o‘tgan besh yil davomida o‘rtacha 37 tadan nazorat-tahlil tadbiri o‘tkazgan. Albatta, bu ko‘rsatkich va raqamlar yaxshi. Lekin nazorat tadbirlari kutilgan natija beryaptimi, ulardan keyin joylarda aniq bir muammo o‘z yechimini topyaptimi, degan savol senatorlarimizni o‘ylantirishi kerak.

Shu bois qo‘mitalardagi eshituv instituti asoslarini qonun darajasida mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi, deb hisoblayman. Har bir qo‘mita o‘z yo‘nalishi bo‘yicha mahalliy Kengashlarga ko‘maklashib borsa, tabiiyki, ularning faoliyati ham sezilarli darajada kuchayadi.

Oltinchidan, biz kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish borasida katta dasturlarni amalga oshirmoqdamiz.

To‘rt yil avval 23 foiz yoki 7,5 million nafar aholimizning daromadi kambag‘allik chegarasiga ham yetmas edi. O‘tgan davrda 3,5 million fuqaro uchun daromad olish imkoniyatini yaratib, kambag‘allikni 11 foizga tushirishga erishdik. Kelgusi uch yilda uni 7 foizga tushirishni reja qilganmiz.

Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida kelgusi yili byudjetdan 500 milliard so‘m yo‘naltiramiz. Yana bir yangilik – yangi yildan 65 turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar, 50 ga yaqin imtiyozlarni o‘zida mujassam etadigan yagona “Ijtimoiy karta” tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Daromadi va sog‘ligini yo‘qotib, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash ko‘lami bosqichma-bosqich kengaytiriladi. Buning uchun “Ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinadi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvini ta’minlash uchun ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘lami kengaytiriladi.

Xabaringiz bor, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyati ijtimoiy muhitdan ajralgan holda ta’lim olmoqda. Ularning umumta’lim maktablariga qatnashi uchun to‘siqsiz muhit va zarur sharoit yaratiladi, maxsus pedagog va psixologlar jalb qilinadi.

Yana bir muhim masalaga alohida to‘xtalmoqchiman. Jamiyatimizda bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari uchrayotganidan xabarim bor. Biz milliy madaniyatimizga xos bo‘lmagan bunday illatlarga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart. Bu masala shaxsan Prezidentning nazoratida bo‘ladi.

Shu bois yaqinda bolaning hayoti, sog‘ligi, sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilinadigan, jismoniy va ruhiy azob yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha holatlarda davlat tomonidan tegishli huquqiy va ijtimoiy choralar ko‘rilishini qonun bilan mustahkamlab qo‘ydik.

Prokuratura organlari zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ta’sirchan choralarni yanada kuchaytirishi kerak.

Ana shunday reja va tashabbuslarimizni to‘liq ro‘yobga chiqarishda senatorlarning ishtiroki, hech shubhasiz, juda muhim.

Yettinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida milliy kengash faoliyati yo‘lga qo‘yilib, Senat raisi unga rahbarlik qilishi to‘g‘ri bo‘lganini hayotning o‘zi tasdiqladi.

So‘nggi besh yilda “Korrupsiyaning mavjud emasligi” ko‘rsatkichida O‘zbekiston 23 pog‘ona yuqori ko‘tarilib, 2023-yilda 140 ta mamlakat orasida 66-o‘rinni egalladi va Markaziy Osiyo mintaqasida bu yo‘nalishda sezilarli ijobiy ko‘rsatkichni namoyish etdi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining shaffofligini baholash bo‘yicha “Ochiqlik indeksi” joriy etildi. Baholash natijalariga ko‘ra qoniqarsiz deb topilgan davlat tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari Milliy kengash yig‘ilishlarida eshitib borilmoqda. Biroq bu borada hali yechimini kutayotgan masalalar ham yetarli. O‘tgan yili korrupsiyaga oid jinoyatlar 12 foizga kamaygan bo‘lsa-da, 6 ming 500 nafar shaxs korrupsiyada ayblanib, javobgarlikka tortilgan.

Umuman, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha parlament nazoratini, butun jamiyatimiz ishtirokini yanada kuchaytirish zarur, deb hisoblayman.

Senat aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, yosh avlod ongiga qonunga hurmat, to‘g‘rilik va halol mehnat tushunchalarini singdirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak.

Sakkizinchidan, Senat tomonidan Sudyalar oliy kengashining barcha a’zolarini saylash tizimi yo‘lga qo‘yilgani sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda bir fikrga urg‘u berib aytmoqchiman: Senatning ushbu konstitutsiyaviy vakolati faqat nomzodlarni tasdiqlash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Yuqori palata qo‘mitalarida nomzodlarning faoliyati bilan tanishish va baho berish, ular haqida xulosa bildirish amaliyotini yo‘lga qo‘yish zarur.

Shu bilan birga, sudyalarning maqomi va sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining huquqiy asosini, sud tizimini moliyalashtirish uchun mablag‘lar ajratishda ushbu hamjamiyatning ishtirok etish kafolatlarini alohida qonunlar bilan belgilaydigan vaqt keldi, deb hisoblayman.

Muhtaram do‘stlar!

Bugun sizlar bilan birga kun tartibiga kiritilgan tashkiliy masala – Senat Raisi va uning o‘rinbosarlarini saylash to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqishimiz zarur.

Konstitutsiyamizning 101-moddasiga muvofiq ko‘pchilik, jumladan, tajribali senatorlar bilan maslahatlashgan holda men Oliy Majlis Senati Raisi lavozimiga hurmatli senatorimiz Tanzila Kamalovna Norboyeva nomzodini taqdim etmoqchiman.

Ushbu nomzodni barchangiz yaxshi taniysiz. Tanzila Kamalovna davlat va jamoat boshqaruvida boy tajribaga ega. O‘tgan davrda uning Oliy Majlis Senati Raisi sifatidagi samarali faoliyati natijasida mamlakatimizda xotin-qizlar, bolalar huquqlarini ta’minlash va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vaziyat sezilarli ravishda yaxshilandi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari borasida ilgari surilgan ko‘plab tashabbuslar bugungi kunda o‘z natijasini bermoqda.

Hurmatli Tanzila Kamalovna yuksak lavozimda sizlar bilan yaqin hamkorlikda yanada muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga ishonaman.

Senat Raisining birinchi o‘rinbosari lavozimiga hurmatli senatorimiz Sodiq Solihovich Safoyev nomzodini tavsiya etaman.

Bu rahbarni mamlakatimizda va xalqaro maydonda tanilgan yirik diplomat, jamoat arbobi sifatida yaxshi taniysiz. Sodiq Solihovichni barchangiz yaqindan bilganingiz tufayli u kishining mehnat faoliyati haqida uzoq to‘xtalib o‘tirmayman.

Senat Raisi o‘rinbosari lavozimiga hurmatli senatorimiz Amanbay Tleubayevich Orinbayev nomzodini tavsiya etaman.

Bu inson xalqimizning fidoyi farzandi bo‘lib, 2022-yil 26-avgustdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, o‘sha yilning 13-sentabridan bir paytning o‘zida Senat Raisi o‘rinbosari sifatida ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

Amanbay Tleubayevich ko‘p yillar ichki ishlar organlari tizimida mas’ul lavozimlarda samarali xizmat qilgan. Mehnat faoliyati davomida o‘zini mas’uliyatli, Vatanga, kasbiga sadoqatli, sinovli damlarda odamlarni jipslashtira oladigan jonkuyar rahbar sifatida ko‘rsatdi.

Sizlardan Amanbay Orinbayev nomzodini qo‘llab-quvvatlashingizni so‘rayman.

Hurmatli Senat a’zolari!

Senat Raisi va uning o‘rinbosarlari etib saylangan Tanzila Norboyeva, Sodiq Safoyev, Amanbay Orinbayevni bugungi yuksak ishonch bilan shaxsan o‘z nomimdan va sizlarning nomingizdan chin qalbimdan tabriklab, ularning kelgusi faoliyatida yutuq va muvaffaqiyatlar yor bo‘lishini tilayman.

Aziz do‘stlar!

Sohibqiron Amir Temur bobomizning **“Saltanat to‘nini kiygach, tanimdan halovat ketdi”**, degan ta’sirchan so‘zlarini ko‘pchiligingiz o‘qigansiz, albatta. Ulug‘ ajdodimizning ushbu so‘zlarida davlatchilik ishiga, el-yurt xizmatiga bel bog‘lagan inson amal qilishi zarur bo‘lgan oliy mezon nazarda tutilganini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Chindan ham, davlat va xalq xizmatchisining – u senator yoki deputat bo‘ladimi, hokim yoki vazir bo‘ladimi – rahbarlik mas’uliyatini o‘z zimmasiga olganidan so‘ng beg‘am-beparvo, loqayd bo‘lib yurishga, huzur-halovatga berilib yashashga ma’naviy haqqi yo‘q.

O‘zingiz tasavvur qiling, 37 millionlik xalqdan faqatgina 65 nafar insonga senator bo‘lishdek yuksak sharaf va baxt nasib etdi. Bu ulkan ishonch va mas’uliyatning qadriga yetish, uni halol va sodiq xizmat bilan oqlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Donishmandlar aytganlaridek, **vijdonan qilingan mehnatdan – najot, adolatdan – yutuq va zafar hosil bo‘ladi**.

Sizlar Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etishga munosib hissa qo‘shasizlar, xalqchil va adolatli qonunlar qabul qilib, barchaga o‘rnak bo‘lasizlar, deb tilak bildiraman.

Men siz, muhtaram senatorlar timsolida ana shunday katta ishlarga qodir, O‘zbekiston oldida turgan strategik vazifalarni chuqur anglaydigan, Vatan va xalq manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan fidoyi insonlarni – o‘zimning eng yaqin maslakdoshlarimni ko‘raman.

Sizlar bor bilim va tajribangiz, kuch va imkoniyatingizni ishga solib, mamlakatimiz hayotida, Senat faoliyatida yangi, yorqin sahifa ochasiz, deb ishonaman.

Ana shunday sharafli yo‘lda barchangizga sihat-salomatlik, ulkan kuch-g‘ayrat, omad va zafarlar tilayman.

ULKAN ISHONCH VA MAS’ULIYATNING QADRIGA YETISH, UNI HALOL VA SODIQ XIZMAT BILAN OQLASH BARCHAMIZNING MUQADDAS BURCHIMIZDIR

1 Hurmatli senatorlarimiz, mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlarimiz ana shu o‘tkir haqiqatni, o‘z zimmalaridagi ulkan mas’uliyatni chuqur anglab ish olib boradilar, deb ishonaman, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu omillar barchadan o‘z ishini tanqidiy baholab, uni butunlay yangicha tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan Senat oldida turgan dolzarb vazifalarga to‘xtalib o‘tildi.

Birinchidan, qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etish zarur. Ayniqsa, qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy Kengashlarni keng jalb etish, har bir qonun bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, qonunlarda hududiy va umumdavlat manfaatlari uyg‘un bo‘lishiga erishish lozim.

Ikkinchidan, mahalliy Kengashlar faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashish Senatning ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak. Ma’lumki, endi xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga hokimlar emas, balki deputatlar orasidan saylangan kengash raislari boshchilik qiladi. Shuningdek, Kengash so‘rovi va Kengash tekshiruvi kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytiriladi. 2026-yildan boshlab tuman va shahar Kengashlariga ham hokimlar raislik qilmaydi.

Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimizda davlat boshqaruvini quyi bo‘g‘inga tushirish, ularni aholiga yaqinlashtirish jarayonlari ortga qaytmas tus olganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, mahalliy Kengashlar vazirlik va idoralarning quyi bo‘g‘inlari, ayniqsa, tuman va shahar bo‘linmalari bilan joylarda yangicha yondashuv asosida ishlashi talab etiladi.

Tuman va shaharlar byudjeti munosabatlarida ham mahalliy Kengashlar juda katta vakolatlarga ega. Bundan oqilona foydalanib, aholini qiynayotgan masalalarni hal etish, Senat esa bu yo‘nalishlarda mahalliy Kengashlarga ko‘maklashib borishi zarur.

To‘rtinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Senatga mahalliy Kengashlarning qarorlari qonunchilikka muvofiq bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha katta mas’uliyat yuklatilgan. Senat bu borada ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylikni ta’minlash bo‘yicha samarali tizim yaratishi kerak.

Beshinchidan, Senat qo‘mitalari – yuqori palataning yuragi, harakatlantiruvchi kuchi. Shu bois qo‘mitalardagi eshituv instituti asoslarini qonun darajasida mustahkamlab qo‘yish vaqti keldi.

Oltinchidan, kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi dastur va rejalarni to‘liq ro‘yobga chiqarishda senatorlarning ishtiroki juda muhim.

Yettinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha parlament nazoratini, butun jamiyatimiz ishtirokini yanada kuchaytirish zarur. Senat aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, yosh avlod ongiga qonunga hurmat, to‘g‘rilik va halol mehnat tushunchalarini singdirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak.

Sakkizinchidan, Senat tomonidan Sudyalar oliy kengashining barcha a’zolarini saylash tizimi yo‘lga qo‘yilgani sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunda Senat faqat nomzodlarni tasdiqlash bilan cheklanmay, ularning faoliyati bilan tanishib, xulosa berish amaliyotini yo‘lga qo‘yish zarur.

Majlisda tashkiliy masalalar ham ko‘rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 101-moddasiga muvofiq Oliy Majlis Senati Raisi lavozimiga nomzod taqdim qildi.

Yashirin ovoz berish orqali Oliy Majlis Senati Raisi lavozimiga Tanzila Norboyeva saylandi. Shuningdek, Senat Raisining birinchi o‘rinbosari lavozimiga Sodiq Safoyev, Senat Raisining o‘rinbosari lavozimiga Amanbay Orinbayev saylandi.

Kun tartibiga muvofiq Senatda 7 ta qo‘mita va bitta komissiya tuzildi. Muhokama etilgan masalalar yuzasidan Oliy Majlis Senatining tegishli qarorlari qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

HAMJIHATLIKDAGI FAOLIYAT DEMOKRATIK JARAYONLARNI MUSTAHKAMLAYDI

Kecha bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi yalpi majlisida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan parlament yuqori palatasining oxirgi besh yillikdagi samarali faoliyati alohida e’tirof etildi. Ayni chog‘da istiqboldagi qator vazifalarga urg‘u berilib, yangi tashabbuslar ilgari surildi. Bu xususda senatorlar o‘zlarining fikr-mulohazalarini bayon etishdi.

Zamonaviy yondashuvlar kirib kelishiga zamin yaratadi

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida ixcham tarkibda shakllangan Oliy Majlis Senati jamiyatimizning turli sohalarida katta tajriba va bilimga ega bo‘lgan insonlardan tashkil topgani e’tiborlidir. Jumladan, ular orasida olimlar, malakali mutaxassislar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ayollarning borligi qonunlar sifati va ularning ijtimoiy ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Qolaversa, mahalliy Kengashlar tarkibi 60 foizga yangilangani, xususan, yoshlar va ayollar ulushining oshgani mahalliy Kengashlar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoniga yangi tashabbus va zamonaviy yondashuvlar kirib kelishiga zamin yaratadi.



Tarixiy yig‘ilishda davlatimiz rahbari Senatning keyingi besh yillik faoliyatining muhim yo‘nalishlariga e’tiborimizni qaratdi.

Ma’lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor Senatga qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish vakolati berildi. Bu yangilik Prezidentimiz nutqida ham alohida ta’kidlandi. Zero, bu huquq senatorlarimizning nazorat tadbirlarida yoki saylovchilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda qonunlarda aniqlagan muammolarni hal qilishida muhim ahamiyatga ega.

Kezi kelganda aytish kerakki, o‘tgan chaqiriqda senatorlar tomonidan amaldagi qonunchilikka o‘zgartirish kiritishga oid 50 dan ziyod takliflar Hukumatga kiritilgan. Endilikda esa Senat qonunchilik takliflarini quyi palataga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritadi. Albatta, biz, senatorlar bu imkoniyatdan samarali foydalanish choralarini ko‘ramiz.

Yangi parlamentning eskicha ishlashga haqqi yo‘q

Rustam XOLMURODOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Senatorlarning zimmasida xalq ishonchini oqlash, Vatan oldidagi mas’uliyatni chuqur his qilish, Prezident tomonidan ilgari surilgan yangi parlament a’zolari burchi haqidagi mulohazalarni idrok etishdek zalvarli vazifalar bor.

Yangi O‘zbekiston yangi parlamentining eskicha ishlashga haqqi yo‘q. Bir haqiqatni unutmaslik shart: faoliyatimiz, avvalo, xalqimiz nazoratida bo‘ladi.



Jahon tajribasida ham parlamentning o‘rni va ahamiyati tobora oshib borayotgan bir davrda yashayapmiz. Senatorlarning befarq, loqayd bo‘lishini zamon ko‘tarmaydi. Urra-urrachilik davri o‘tib ketdi, xalqimizning huquqiy savodxonligi oshgan.

2016-yilda boshlangan ochiqlik siyosati, demokratiya, so‘z erkinligi aholining bilim va ko‘nikmalarini, qarashlarini butunlay o‘zgartirib yubordi.

O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida taraqqiyotning ortga qaytmaydigan mustahkam va ishonchli yo‘liga tushib olgan. Xalq bilan muloqotning jahon tajribasida uchramaydigan mutlaqo yangi uslublari ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz majlisda ta’kidlaganidek: **“O‘zingiz tasavvur qiling, 37 millionlik xalqdan faqatgina 65 nafar insonga senator bo‘lishdek yuksak sharaf va baxt nasib etdi. Bu ulkan ishonch va mas’uliyatning qadriga yetish, uni halol va sodiq xizmat bilan oqlash barchamizning muqaddas burchimizdir”.**

65 nafar Senat a’zosining yelkasida o‘ttiz yetti millionlik xalqning ishonchi turibdi. Vazifamiz qanchalik ulug‘vor, shu bilan birga, o‘ta mas’uliyatli ekanini Prezidentimiz qisqa va lo‘nda qilib tushuntirdi.

Mamlakatimiz rahbari boshchiligida hammamiz xalq xizmatkori ekanimiz uqtirildi. Maqsad aniq: “Faqat va faqat inson qadri. Xalqni rozi qilish”.

Senat a’zolari bilan muloqotda Prezidentimiz O‘zbekistonning tinchlik va taraqqiyot strategiyasi nimalarni o‘z ichiga olishini birma-bir tushuntirib berdi.

Bu borada biz, senatorlardan nimalar talab etilishi ham ko‘rsatib o‘tildi: “Faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga erisha olamiz”.

Bugun kechagiday yashab bo‘lmasligi oyday ravshan. Senat a’zoligi bu – mansab yoki martaba emas. Mashaqqatli mehnat, xalq oldidagi qarzni uzish, odamlar ishonchiga munosib javob qaytarishdir.

O‘zbekiston katta maqsad va marralarni zabt etish uchun intilayotgan, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan mustaqil davlatdir. Mustaqil davlatning parlamenti ham o‘z so‘zi va o‘rniga ega bo‘lishi o‘z-o‘zidan tushunarli.

Har bir qonun aholi manfaatlarini ko‘zlashi kerak

Nusuratulla PARDAYEV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Bugun dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan notinchlik, ekologik va texnogen fojialar, qisqacha aytganda, global tahdidlar butun insoniyatni tashvishlantirayotgani ayni haqiqat. Ushbu dolzarb masala Prezidentimiz nutqida alohida tilga olindi. Negaki, bunday sharoitda yurtimizda tinchlikni asrab-avaylash, xalqimiz manfaatlarini himoya qilish barchamiz uchun asosiy vazifa hisoblanadi.



Zero, tinchlik – bu nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi, balki xalqimizning barqaror hayoti uchun asosiy poydevor.

Yurtimizda olib borilayotgan tinchlikni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlar ham ana shu ezgu maqsadga yo‘naltirilgan. Bu siyosat orqali xalqning davlatga bo‘lgan ishonchi yanada mustahkamlanmoqda. Shu ma’noda, biz, xalq vakillari ushbu yo‘nalishda yetakchi bo‘lib, yurtimizda barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun jiddiy harakat qilish kerakligini yaxshi tushunamiz. Ya’ni har bir qabul qilinadigan qonun xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlarini ko‘zlashi hamda yurtdoshlarimizning og‘irini yengil qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Qolaversa, davlat dasturlari, strategiya va konsepsiyalarni tayyorlash jarayonida, albatta, mintaqamiz va jahonda kechayotgan global jarayonlarni chuqur tahlil qilishimiz, tashqi siyosatimiz bilan uyg‘unlashtirishimiz, Yurtboshimiz boshchiligida olib borilayotgan do‘stona va pragmatik tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini teran anglagan holda ish yuritishimiz talab etiladi.

Ishonamizki, xalqimiz tinchlikning qadriga yetib, uni asrab-avaylashda mas’ullarga yaqindan ko‘maklashadi.

Parlament nazorati imkoniyatlari kengaytirildi

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Ma’lumki, yangi bir sharoitda Oliy Majlis Senatining parlament nazorati imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Bu biz uchun katta mas’uliyat yuklaydi. Endilikda senatorlar faqat turli lavozimlarga nomzodlarni tasdiqlash bilan cheklanib qolmasdan, qo‘mitalarda ularning faoliyati, kasbiy salohiyati va boshqaruv qobiliyatini har tomonlama o‘rganishi kerak. Nomzodlar haqida chuqur tahlil va xolis xulosa tayyorlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish davlat boshqaruvida adolat va professionallikni ta’minlashda naqadar ahamiyatga ega ekanini tushunish qiyin emas.



Davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlarini eshitish tizimini qayta ko‘rib chiqish vaqti kelgani ham rost. Hisobotlarni faqat tinglash emas, balki ularni chuqur tahlil qilish orqali real natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, jinoyatchilikning oldini olish va uni jilovlash masalalarida qat’iy pozitsiyada turishimiz zarur.

Biz endigi faoliyatimiz davomida Senatning tahliliy salohiyatini yanada kengaytirish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga hissa qo‘shishimiz kerak bo‘ladi. Buni nafaqat qonunchilik jarayoni, balki butun boshqaruv tizimining sifatini yaxshilashda muhim asos, deb bilamiz. Har bir qabul qilingan qaror xalq manfaatlariga mos kelishi va davlat boshqaruvi shaffofligini ta’minlashi lozim. Parlament nazorati 5 yillik faoliyatimizda biz uchun asosiy yo‘nalishlardan bo‘lib qoladi.

Huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish – davr talabi

Orzigul QOZIXONOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Yig‘ilishda Prezidentimiz tomonidan yangi saylangan senatorlar faoliyatini kuchaytirish bilan bog‘liq muhim takliflar ilgari surildi.

Ulardan biri Senat aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, yosh avlod ongiga qonunga hurmat, to‘g‘rilik va halollik tushunchalarini singdirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq.

Albatta, bu tashabbus zamirida katta ma’no mujassam. Keyingi yillarda jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni yaratish borasida salmoqli darajada tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirildi.



Senatda Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘mita faoliyat yuritmoqda, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Barcha davlat organlari va tashkilotlari, viloyatlar va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bu boradagi amaliy harakatlarimiz xalqaro darajada ham e’tirof etilmoqda. Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan o‘tkazilgan islohotlar natijasida mamlakatning xalqaro reytinglardagi o‘rni sezilarli darajada yaxshilandi. So‘nggi 7 yilda Korrupsiyani qabul qilish indeksida muntazam ravishda faqat ijobiy jihatdan yaxshilangan kam sonli davlatlar qatoriga kirganmiz.

Shu bilan birga, yosh avlod ongiga qonunga hurmat, to‘g‘rilik va halollik tushunchalarini singdirish korrupsiyaga qarshi kurash yo‘lida muhim qadam hisoblanadi. Bu yoshlarning davlatga ishonchini oshirish, adolatli, qonunga amal qiladigan jamiyat qurishga hissa qo‘shadi. Bu kelgusi besh yillik faoliyatimiz mezoniga aylanadi.

Mahalliy Kengashlar va ustuvor vazifalar

O‘ktamjon OXUNOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Yig‘ilishda mamlakat rahbari yangi shakllangan Senatning mahalliy Kengashlar bilan doimiy aloqalariga doir qator ustuvor masalalarga e’tibor qaratdi.

Xususan, Senatning mahalliy Kengashlar bilan muloqotini hamda hamkorligini yanada kuchaytirish, ayniqsa, mahalliy Kengashlar vakolatlari kengayib borayotgan bir sharoitda ularga ushbu vakolatni amalga oshirish bo‘yicha uslubiy jihatdan yangi tartiblar ishlab chiqish zarurati borligini alohida ta’kidladi.

Aytish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Senatning mutlaq vakolatlari bilan birga mahalliy Kengashlarning ham vakolatlari alohida norma sifatida mustahkamlab qo‘yildi.

Munosabat

Bu esa mahalliy davlat boshqaruvida xalq deputatlari Kengashlarining maqomi oshgani, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda esa deputatlarning bevosita ta’sirchanligi kuchayganini anglatadi.



Ushbu ishlarni amalga oshirishda mahalliy Kengash deputatlaridan yuqori tajriba, malaka va amaliy ko‘nikma talab etiladi, albatta. Ushbu tizimni yo‘lga qo‘yishda Senat oldida ham qator vazifalar turganini bugun davlatimiz rahbari nutqini tinglash asnosida yanada chuqur his qildik.

Prezidentimiz bu borada mahalliy Kengashlarning yaxshi tajribasini boshqa hududlarda ham ommalashtirish, namunali Kengashlarni e’tirof etish bo‘yicha faoliyatni kuchaytirishda aniq yo‘nalishlarni belgilab berdi. Bu esa kengashlarga ishonchni oshirish barobarida ularni yanada faol bo‘lishga undaydi.

Mahalliy Kengashlar aholini qiynayotgan masalalar yechimi bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surishi, Senat esa o‘z konstitutsiyaviy vakolati doirasida ushbu faoliyatni tizimli tahlil qilib, ularga ko‘maklashib borishi kerak bo‘ladi.

Mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi, hayotiyligi ko‘p jihatdan deputatlar salohiyatiga ham bog‘liq. Qabul qilingan qarorlar qonunchilik normalariga nomuvofiq bo‘lgan taqdirda Senat tomonidan bekor qilinishi tartibi belgilanishi ham hududlarda qonuniylikni ta’minlashga turtki beradi.

Muhokamalarda yangicha mexanizmlar qo‘llanadi

Ikromxon NAJMIDDINOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

– Prezidentimiz o‘z nutqida bejiz qonunlarni muhokama qilishda yangicha mexanizmlarni joriy etish, qonun ijodkorligi jarayoniga mahalliy Kengashlarni keng jalb qilish, har bir hujjat bo‘yicha ularning fikrini olish amaliyotini yo‘lga qo‘yish lozimligini ta’kidlamadi.



Gap shundaki, bu kabi yangicha yondashuvlar Senat faoliyatida qonunlarni muhokama qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning qonunlarni muhokama qilishdagi faoliyati nafaqat yuqori darajadagi tahlilga asoslangan bo‘lishi, balki hududlar manfaatlarini ham aks ettirishi kerak. E’tibor beradigan bo‘lsak, Senatda 2020 – 2024-yillarda 438 ta qonun muhokamadan o‘tkazilib, 20 ta qonun inson huquqlari va hududlar manfaatlariga to‘liq javob bermagani bois rad etilgan. Bu ham Senat muhokamalari natijasi bo‘lsa-da, bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirishni davrning o‘zi talab etmoqda.

Bu borada qonunlar muhokamalarini kuchli professionalizm, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida o‘tkazish, jarayonlarga ekspert va mutaxassislar, ommaviy axborot vositalarini keng jalb etish, ularning fikr va takliflarni har tomonlama muhokama qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Har bir qonun bo‘yicha mahalliy Kengash fikrini olish amaliyotini joriy etish hududlardagi muammolarni yaxshiroq tushunish va ularni qonunchilikda aks ettirish imkonini beradi. Bu nafaqat qonunlarning samaradorligini oshiradi, balki ularning ijtimoiy ta’sirini ham kuchaytiradi.

Senatning mahalliy Kengashlar bilan hamkorligi qonun ijodkorligi jarayonini yangi bosqichga olib chiqishda g‘oyat muhim. Bunday yondashuv orqali xalq manfaatlariga mos qonunlarni qabul qilish va ularning hayotga tatbiq etilishini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Bizning vazifamiz nafaqat qonunlarni qabul qilish, balki ularning hayotiyligini ta’minlashdan ham iborat.

“Xalq so‘zi”.

FRAKSIYALARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI VA ISHTIROKI KENGAYADI

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida ilgari surilgan konstruktiv takliflar,xalqchil tashabbuslar mamlakatimiz parlamenti faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishi barobarida, siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Fraksiyalar rahbarlari bu xususda o‘z fikr-munosabatlarini bildirdi.

Qonunlarni qabul qilishda faollik ko‘rsatiladi

Aktam XAITOV,
O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari:

– Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutqida yutuqlar bilan birga e’tiborimizdan chetda qolayotgan ayrim masalalarga to‘xtalib o‘tdi. Ushbu tarixiy nutq biz uchun dasturilamal hujjat vazifasini o‘taydi. Ayni chog‘da o‘z faoliyatimizni tubdan qayta ko‘rib chiqish uchun kuchli turtki bo‘ladi.



Quyi palatada qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha parlament komissiyasini tashkil etish bo‘yicha g‘oyat muhim taklif ilgari surildi. Chunki kelajakda mamlakatimizning jahon savdo aylanmasi zanjirida faol bo‘lishi ushbu tashkilotga a’zolik bilan bog‘liq. Mazkur tashkilot talablariga salkam 70 ta qonunchilik hujjati uyg‘unlashtirilgan bo‘lsa-da, hali oldimizda bu borada katta vazifalar turibdi.

Bundan tashqari, partiyamiz maqsad va vazifalariga to‘liq mos bo‘lgan xususiy ta’lim va elektr energetikasi sohasida investorlarni qo‘llab-quvvatlash, majburiy tibbiy sug‘urta va sun’iy intellektni qo‘llash, franchayzing, kapital bozori, “startap”lar sohasidagi munosabatlarning qonuniy asoslarini yaratish borasida aniq vazifa qo‘yildi.

Yana bir muhim masala – investitsiya dasturlarini tayyorlashda deputatlar ham ishtirok etadigan, ularning fikri inobatga olinadigan tizim yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Qo‘mitalar huzurida fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlarini tashkil etish tashabbusi ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Ular qo‘mita majlislarida qatnashib, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflarini yetkazadi. Ushbu amaliyot qonun loyihalarini ishlab chiqish va muhokama jarayonlarining ochiqligi hamda shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Parlament qo‘mitalari vazirliklar bilan ishlashda faqat nazorat va talab etish emas, balki ular bilan yaqindan hamkorlik qilishga ahamiyat berishi kerakligi qayd etildi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki eng katta kamchilik – vazirliklar quyi bo‘g‘inda, ayniqsa, tuman va shahar darajasida samarali ish tashkil qila olmayapti. Davlatimiz rahbari ushbu masalaga to‘xtalib, endi aholi bilan bevosita muloqot qilib, odamlarni qiynayotgan muammolarni joyida hal etish ular uchun bosh vazifa bo‘lishi kerakligini ta’kidladi.

Biz, deputatlarga vakolat doirasida o‘z okruglarimizdagi tuman va shahar darajasida so‘rov hamda talabni kuchaytirish vazifasi qo‘yildi. Chunki xalqimizning o‘zi bizdan ana shunday jonbozlik ko‘rsatib ishlashni talab etmoqda. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, O‘zLiDeP fraksiyasi o‘z oldida turgan ustuvor vazifalarni belgilab oldi va saylov okruglarimizdagi faoliyatimiz davomida ijro hokimiyati bilan birgalikda mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratamiz.

Ma’lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, Davlat byudjeti ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatiga kiradi. Bu muhim vakolat deputatlarimiz zimmasiga katta mas’uliyat ham yuklaydi.

Prezidentimiz bu masalaga ham urg‘u berib, birinchi galda palataning Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirishning vaqti-soati kelgani, jumladan, Hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotini palataga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyotiga o‘tish kerakligini ta’kidladi. Bu juda to‘g‘ri va nihoyatda oqilona qaror bo‘lib, faoliyatimiz davomida mazkur masalalar diqqat markazimizda bo‘ladi.

Ta’kidlash kerak, yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar har bir inson, har bir oilaning farovonligini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Ularning negizida turuvchi huquqiy asoslarni o‘z vaqtida va sifatli yaratib berish parlamentimiz zimmasidagi ustuvor vazifadir.

Shu nuqtayi nazardan, hozirdanoq puxta o‘ylangan besh yillik dastur asosida yangi qonunlar ustida ish boshlasak, xalqimiz kutayotgan islohotlar muvaffaqiyatiga katta hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Bu ishlarda O‘zLiDeP fraksiyasi faol, yetakchi bo‘ladi. Buning uchun hukumat idoralari va hududlar bilan yaqindan ishlashga, parlament nazoratini chinakam ta’sirchan institutga aylantirishga, partiyamiz elektorati manfaatlariga xizmat qiladigan sifatli qonunlarni qabul qilishga alohida e’tibor qaratamiz.

Raqobat bor joyda rivojlanish bo‘ladi, adolat qaror topadi

Robaxon MAHMUDOVA,
“Adolat” SDP fraksiyasi rahbari:

– Mamlakatimiz rahbari siyosiy partiyalar ilgari surgan takliflarni birma-bir tahlil qilib, ularning asoslilarini e’tirof etdi. Jumladan, partiyamizning istirohat bog‘lari, sa-yilgoh va xiyobonlarni xususiylashtirishni taqiqlash bo‘yicha pozitsiyasi, dorilar ustidan nazoratni kuchaytirish, narxlarning sun’iy oshishining oldini olish, retseptsiz dorilar ro‘yxatini qisqartirish bo‘yicha intilishlari ijobiy baholangani, albatta, kelgusi faoliyatimizda bizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi.



Ko‘p millatli xalqimizni o‘ylantirib turgan ko‘plab muammolarga qonuniy yechim topishda parlamentning rolini oshirish haqidagi tashabbuslar ham fraksiyamiz a’zolari tomonidan yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlandi.

Binobarin, hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini qurish, mahallalarni obod qilish bo‘yicha investitsiya dasturlari shahar va qishloqlarimizdagi xalqimiz hayotini tubdan yaxshilashga xizmat qilmoqda. Masalan, shu yilning o‘tgan davrida investitsiya dasturlariga 30 trillion so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonda deputatlarning faol ishtiroki, uning ijrosi ustidan nazorati deyarli sezilmagani asosli tanqid qilindi. Endi biz, deputatlar ushbu fikrlardan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz va investitsiya dasturlarini tayyorlashda faol ishtirok etadigan mukammal tizim yaratishimiz lozim bo‘ladi.

Davlatimiz rahbarining uy-joy sotib oladigan aholi mablag‘larini kafolatli himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni kuchaytirishga oid taklifi ham e’tiborga molik. Sababi, keyingi yillarda ko‘plab yurtdoshlarimiz ayrim soxta “quruvchilar”ning noqonuniy harakatidan aziyat chekmoqda. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida fuqarolarimizning uy-joy qurilishiga jalb etilgan mablag‘larini kafolatli himoyalashga qaratilgan qonunning qabul qilinishi bu boradagi muammolarga chek qo‘yishi, shubhasiz.

Mamlakatimiz rahbarining tugal yechimini kutayotgan majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish ishlarini yakuniga yetkazishga doir takliflarini ham to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz. Zero, partiyamiz aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish ishlarini davom ettirish tarafdori.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, dori-darmon tarmog‘ini tartibga solish, tibbiyotda raqamli platformalardan samarali foydalanish va majburiy tibbiy sug‘urta tizimini muvaffaqiyatli ishga tushirishga qaratilgan qonunchilikni rivojlantirish yaqin istiqboldagi faoliyatimizning asosiy maqsadi bo‘lib qoladi.

Majlisda parlamentda muxolifatni jonlantirish va ularga qo‘shimcha huquqlar berish taklifi ham bildirildi. Bu demokratik jamiyat qurishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sog‘lom raqobat va ochiq muhokamalarni ta’minlaydi.

Ushbu tarixiy nutqda saylovlardagi sog‘lom raqobat, qarashlar plyuralizmi parlamentga ko‘chib o‘tishi, yangi O‘zbekiston parlamenti “g‘oyalar generatori”ga, konstruktiv bahs va munozaralar maydoniga aylanishi lozimligi ham qayd etildi. Bunday yondashuv parlament faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratadi. Zero, raqobat bor joyda rivojlanish bo‘ladi, adolat qaror topadi.

Prezidentimiz belgilab bergan ustuvor vazifalar va ilgari surilgan muhim takliflar xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, “Adolat” SDP va uning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi ushbu zalvarli vazifalar ijrosini hayotga tatbiq etishda yanada faol qatnashadi.

Pensiya bilan bog‘liq masalalar – doimiy e’tiborda

Ulug‘bek INOYATOV,
O‘zbekiston XDP fraksiyasi rahbari:

– Prezidentimiz partiyamiz saylov kampaniyasi davomida ilgari surgan hamda xalqimiz qo‘llab-quvvatlagan ikkita eng muhim masalaga e’tibor qaratdi. Qayd etilganidek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sharoitlari yaxshilanishi jamiyatimizning inklyuzivligi uchun juda muhim. Buning natijasida imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimizga teng huquqiy sharoitlar yuzaga keladi.



Xalq demokratik partiyasi har doim nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq-manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Hamisha o‘z dasturlarida ularning hayotini yaxshilash, manfaatlarini ta’minlashga oid tashabbuslarni ilgari surib keladi.

Binobarin, nogironligi bo‘lgan insonlarga qulay muhit va sharoitlar yaratilishi muhim. Ular ham ijtimoiy hayotning faol qatnashchisi bo‘lishi, o‘z qobiliyatlarini namoyon qila olishi lozim. Imkoniyatlar kengayishi nogironligi bo‘lgan shaxslarning ham jamiyatimizdagi faolligini yanada oshirish uchun ayni muddao bo‘ladi. Chunki inklyuzivlik, avvalo, harakat uchun imkoniyat degani. Harakatlanish, ta’lim, hunar o‘rganish imkoniyatlari kengaysa, tabiiy ravishda ularning huquqlari amalga oshadi.

Pensiya bilan bog‘liq takliflarni ham saylovchilar intiqlik bilan kutyapti. Fraksiyamiz Hukumatdagi ishchi guruh bilan birga hamkorlikda ishlab, Saylovoldi dasturimiz ijrosini amalga oshirishga astoydil harakat qiladi.

Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, yurtimizda ham o‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichi oshib bormoqda. Yil sayin safi kengayib borayotgan keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, Konstitutsiyamizda belgilanganidek, har kim qariganda ijtimoiy ta’minot olish huquqini kafolatlash davlat resurslariga ehtiyojni oshirmoqda. Bu esa pensiya tizimini keng ko‘lamli isloh qilish, pensiya tayinlash shartlarini qayta ko‘rib chiqish, tizimning moliyaviy barqarorligini ta’minlash borasida jiddiy qadamlar tashlashni taqozo qilyapti.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Pensiya jamg‘armasidan nafaqa oluvchilar soni 4 milliondan oshgan. Ularning hayot darajasini yaxshilash, ijtimoiy faolligini oshirish, e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish uchun pensiya ta’minotidagi mavjud muammolarni yechishda partiyamiz o‘z tashabbuslariga ega. Misol uchun, uzoq yillar oldin sobiq jamoa xo‘jaligi va shirkat xo‘jaligida mehnat faoliyatini yuritgan fuqarolarning ana shu mehnat davrlarini pensiya tayinlashda to‘liq yil sifatida inobatga olish, ayollarning farzandlari uch yoshga to‘lguncha tug‘uruq ta’tillarida bo‘lish vaqtini ish stajiga to‘liq qo‘shib hisoblash takliflarini ilgari surganmiz.

Shu o‘rinda bir masalani tan olishimiz kerak, ya’ni pensionerlar o‘zlarining jamg‘arib borilayotgan pulini boshqarish tizimida ishtirok etmaydi. Partiyamiz jamg‘arib borilayotgan mablag‘larni boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish va unda bevosita pensionerning o‘zi ishtirok etishi kerak, deb hisoblaydi. Masalan, fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib borilayotgan pensiya mablag‘larini boshqarish, ularni onlayn ravishda kuzatish, bankka depozitga qo‘yish orqali ko‘paytirib borish imkoniyatini berish orqali tizimda shaffoflikni ta’minlash mumkin.

Bundan tashqari, pensiyaga chiqib, kamida besh yil ishlab, daromad solig‘i va ijtimoiy soliqni to‘lagan pensionerlar uchun muqaddam tayinlangan pensiyani qayta hisoblab, oshirilgan miqdorda tayinlash imkoniyatini berish va pensiya yoshini o‘zgartirmasdan saqlab qolish bo‘yicha yuritilayotgan siyosatni davom ettirish tarafdorimiz.

Yig‘ilishda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi qabul qilingani, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha katta marra olingani alohida qayd etildi. Mazkur ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlashda nafaqat O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi, balki partiyaning hududlardagi 1200 nafarga yaqin deputatlari faol ishtirokchi bo‘ladi.

Islohotlarga kamarbastalik mas’uliyati

Abdushukur HAMZAYEV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari:

– Yangi shakllangan parlament quyi palatasining kelgusi besh yillikdagi eng ustuvor vazifalari yuzasidan Ekologik partiya fraksiyasi uchun ham juda muhim bo‘lgan tashabbus va g‘oyalar Prezidentimiz tomonidan alohida qayd etib o‘tildi. Ayniqsa, bunda partiyamiz Saylovoldi dasturida ko‘zda tutilgan ko‘plab vazifalarning ham ijrosi qamrab olingani biz uchun alohida ahamiyatga ega.



Saylovoldi dasturimizdan o‘rin olgan davlat organlari va korxonalari hududlarida yashil bog‘lar tashkil etish, mamlakatimizda ekologik madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilish vazifalari e’tirof etildi. Ochig‘i, bu vazifalarning ijrosi mamlakatimiz, aholimiz uchun naqadar ahamiyatli va zarur ekanini bugungi ekologik vaziyatning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi. Qolaversa, tabiatning bugungi ovozi bizni shunga da’vat etmoqda.

Mamlakat rahbari tomonidan Qonunchilik palatasida iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish masalalari bo‘yicha parlament komissiyasini tashkil etish taklifi ham ayni bugungi kunning talabi, qolaversa, bu partiyamizdan saylangan deputatlarning dasturiy maqsadlariga hamohang ekani bizni yanada mas’uliyat bilan ishlashga da’vat etadi. Bu, avvalo, iqlim o‘zgarishlari va “yashil” iqtisodiyot masalalari bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan yuksak minbarlarda ilgari surilayotgan tashabbuslar ijrosini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Majlisda aholini tashvishga solayotgan hayotiy sohalarda, xususan, oziq-ovqat xavfsizligi hamda ekologiya bilan bog‘liq masalalarda parlament va deputatlik nazorati susaygani juda o‘rinli ta’kidlab o‘tildi.

Yangi chaqiriqda fraksiyamiz va partiyamiz ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratadi. Mavjud ekologik vaziyatni real baholagan holda zimmamizdagi mas’uliyatni chuqur his etib, yangi kuch va shijoat bilan doim faol bo‘lish, ekologiya sohasida qonunchilik talablari ijrosini ta’minlashda davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini kuchaytirish har bir deputatimizning qat’iy vazifasiga aylanadi.

Xalqaro tashabbuslarni aholiga tushuntirish, parlamentimiz faoliyatini jonlantirish bo‘yicha bildirilgan takliflarni ham fraksiyamiz faol qo‘llab-quvvatlaydi. Ayni shu yo‘nalishlarda alohida dastur ishlab chiqib, partiyamiz qoshidagi ekspertlar, olimlar korpusi bilan birgalikda targ‘ibot ishlarini kuchaytiramiz.

Kelgusi besh yillikda saylovchilar bildirgan ishonchni oqlashga, Saylovoldi dasturimizda belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga kamarbasta bo‘lib, fidoyilik bilan mehnat qilishga ahd qilganmiz va bu yo‘lda qat’iy turamiz.

“Xalq so‘zi”.
</transc

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 20-noyabr

SUN’IY INTELLEKT

UNING MAHSULIDAN MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARGA PUTUR YETISHIGA YO‘L QO‘YMASLIK ZARUR



Ilm-fan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan, to‘rtinchi sanoat inqilobi davri deb atalayotgan bugungi sharoitda rivojlangan mamlakatlarda davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta’lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo‘jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish kun tartibiga chiqmoqda. Bunday sharoitda zamondan ortda qolib bo‘lmaydi.

Nuqtai nazar

Zero, hozirda texnologik taraqqiy etgan davlatlar iqtisodiy jihatdan ham yuqori ko‘rsatkichlarga erishish bilan birga sun’iy intellekt sohasida ilgarilab ketishi rivojlanayotgan va rivojlanishdan ortda qolgan davlatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Boz ustiga keyingi o‘n yillikda axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt iqtisodiy, geosiyosiy va mudofaa sohalarida ko‘plab davlatlar rivojining asosiy omillari bo‘lib qolmoqda.

Insoniyat sun’iy intellekt orqali XXI asr global muammolariga ilm-fanda yangi imkoniyatlarni kashf etish orqali ijobiy yechimlar topishi bilan bir qatorda hayot tarzining tibbiyot, ta’lim va boshqa barcha sohasida sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlariga erishadi. Sun’iy intellektning yaxshi jihatlari ko‘p. U sizga yaxshi yordamchi bo‘lish bilan birga daromad olib keladigan instrument ham bo‘la oladi. Sun’iy aql kechayu kunduz ishlashi, bir vaqtning o‘zida millionlab odamlar bilan aloqa qilishi, insoniyatning butun ilmlariga kira olishi bilan bashariyatni hayratga solmoqda. Ular ko‘p ishlarda odamlar o‘rnini bosishi ajablanarli hol bo‘lmay qoldi.

Xullas, zamon shiddat bilan o‘zgarib jahonda har bir sohaga sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelyapti. Bu borada yurtimizda ham qator loyihalar boshlangan. Misol uchun, “MyID” va “UzFace” dasturlari tashkilotlar, bank, elektron savdo maydonchalari va to‘lov tizimlarida joriy qilinib, 10 million foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. “O‘zbekkosmos” sun’iy intellektni qo‘llab, 43 mingga yaqin yer qa’ridan noqonuniy foydalanish va ruxsatsiz qurilish holatlarini aniqladi.

Yurtimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish, axborot texnologiyalari va sun’iy intellektni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotir. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni rag‘batlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, har bir sohaga innovatsiyalarni joriy etish, mavjud institutsional-huquqiy, ma’muriy hamda boshqa mavjud to‘siqlarni bartaraf qilish maqsadida davlatimiz rahbarining shu yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Bu esa ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi oshiriladi

Qarorga muvofiq sun’iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmi 1,5 milliard AQSH dollariga yetkaziladi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushi, sohadagi ilmiy laboratoriyalar soni oshiriladi. Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida O‘zbekiston Respublikasining birinchi 50 talikdagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish maqsadlariga yo‘l ochadi.

Aytish joizki, mamlakatimizda sun’iy



intellektdan ta’lim, media, transport, sog‘liqni saqlash, sud va boshqa ko‘plab sohalarda foydalanilmoqda. Bu yaxshi. Masalan, tibbiyot uchun sun’iy intellektning kirib kelishi bir qancha qulayliklarni tug‘dirmoqda. Tizimda shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish, diagnostika aniqligini oshirish va boshqa yo‘nalishlarda qo‘l kelayotgani hammamizga ayon. Shuningdek, jigar sirrozi va gepatokarsinomani erta tashxislashda “aqlli” tizimni ishlab chiqish kabi loyihalar bor. Telefon orqali unga sog‘ligingizga oid shikoyatlarni yozib bersangiz, u sizga tashxis qo‘yadi. Ya’ni qanday davolanish yo‘llarini ko‘rsatib beradi va kerakli shifokorlarga yo‘naltiradi.

Albatta, sun’iy intellekt haqiqiy shifokorlarning o‘rnini egallamaydi va bu haqda o‘zi ham aytadi. U kasalingizni aniqlab, davolanish uchun shifokorga murojaat qilishni tavsiya etadi. O‘zbekistonda dorilar bo‘yicha og‘riqli masalalar bo‘ldi. Sun’iy intellekt bazasida ishlaydigan shunday dasturlar borki, siz dorini rasmga olib, uni dasturga yuklasangiz, dori O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tganmi, undan foydalanish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab beradi. Bu, albatta, xunuk oqibatlardan saqlab qolishi mumkin. Bundan tashqari, videokuzatuv kameralari asosida yong‘inni tezkor aniqlab, xabar berish tizimi ham yaratilmoqda.

Sun’iy intellekt orqali bank-moliya sohasida firibgarliklarning oldini olish, foydalanuvchilar to‘lov qobiliyatini baholash, bozor tendensiyalarini prognoz qilish, soliq va bojxona sohalarida yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, shubhali bojxona operatsiyalarini prognozlash va xavflarni boshqarish, sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni tashxislash, davolash usullarini belgilash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va bemorga oid ma’lumotlarni boshqarish, qishloq xo‘jaligi sohasida hosildorlikni prognoz qilish, qishloq xo‘jaligi resurslarini boshqarish, ekinlar, parranda, baliq va chorva mollarini yetishtirish jarayonlarini monitoring qilish, energetika sohasida energiya resurslarini boshqarish, energiya ishlab chiqarish va taqsimlashni optimallashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va ularga bo‘lgan talabni prognozlash mumkin.

Yuqoridagi qaror asosida strategiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali, *birinchidan,* sun’iy intellektga doir munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, xalqaro va mahalliy standartlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan normativ-huquqiy bazani shakllantirishga erishiladi.

Ikkinchidan, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazlarida “bulutli texnologiyalar” xizmatlarida ma’lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligini ta’minlash asoslari yaratiladi.

Uchinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida institutsional boshqaruv shakllantiriladi.

To‘rtinchidan, sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha etika qoidalari ishlab chiqiladi.

Beshinchidan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalari keng joriy etiladi. Korxona va tashkilotlarda ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali vaqt va resurslardan samarali foydalaniladi.

Oltinchidan, oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlanadi va ushbu yo‘nalishdagi bitiruvchilar soni oshadi.

Insoniyat uchun qanchalik xavfli?

Bugun dunyoda sun’iy intellekt mavzusi juda ko‘p muhokama qilinmoqda. Qaysidir axborot kanalida uning olamshumul yutuqlari yozilayotgan bo‘lsa, boshqasida axloqiy jihatlari tanqid qilinyapti. Shuningdek, sun’iy intellekt

> ***“Hozir dunyodagi hukumatlar, yirik kompaniya va tashkilotlarning deyarli barchasi sun’iy intellektni rivojlantirish sohasidagi strategiyalar bo`yicha ish olib bormoqda. Ammo hech kim, hatto sun’iy intellektni ishlab chiqqanlarning o`zlari ham bu aql bovar qilmas texnologiya yutug`i oxir-oqibatda nimalarga olib kelishi ehtimoli haqida aniq tushunchaga ega emas.”***

bo‘yicha tadqiqotchi olimlarning bu boradagi bashoratlari ham turlicha.

Xo‘sh, sun’iy intellekt insoniyat uchun qanchalik xavfli? Rostdan ham, bu savol hozir juda dolzarb. Sun’iy intellektning aynan o‘zidan qo‘rqish kerak emas, balki uni yaxshilab o‘rganish kerak. Sun’iy intellekt media sohasiga shiddat bilan kirib keldi. Ayniqsa, tasvir ustida ishlash, montaj qilish kabilarda qo‘l kelyapti. Chet elda shu darajaga chiqdiki, televideniyeda boshlovchilarning sun’iy intellekt shakli yaratilib, dasturlar olib borilmoqda.

Salbiy tomonlar hamma narsada bor. Deylik, oddiy pichoqdan oshxona anjomi sifatida ham, qurol sifatida ham foydalanish mumkin. Sun’iy intellekt ham nima maqsadda, kimning qo‘lida ishlatilishiga qarab foydali yoki zararlidir. Aslida sun’iy intellekt juda yaxshi yordamchi. Masalan, uning yordamida robotlar operatsiyalar o‘tkazyapti, kasallarga tashxis qo‘yyapti. Ilgari 3D multfilmlarni ishlash uchun oldin bir necha oylar, yillar vaqt ketgan bo‘lsa, hozir sun’iy intellekt yordamida jarayon ancha tezlashdi. Personajni oddiy so‘zlar yordamida yozib, uni yaratish mumkin. Animatsiyada ham sun’iy intellekt juda rivojlanib bormoqda.

Hozircha sun’iy intellektda hissiyotlar yo‘q, faqat ma’lum algoritmlar asosida ishlaydi, matnlarni o‘rganadi. Hissiyotlaring bormi, deb savol berilsa ham, menda hissiyot yo‘q degan javobni beradi. Ta’lim sohasida ham sun’iy “aql”ning o‘rni katta. Har qanday fanni uning yordamida o‘rganish mumkin, baholab ham boradi, qanday xato qilayotganingizni ham ko‘rsatadi.

Agar zamon bilan hamnafas yurmoqchi bo‘lsak, sun’iy intellektni o‘rganishimiz kerak. O‘zi shundoq ham kech qolyapmiz, bu sohada har kuni yangilik bo‘lyapti. Ularni o‘zlashtirish va taraqqiy ettirishga hissa qo‘shish shart. Bundan tashqari, aholi sonining o‘sishi va hududlar yer resurslarining chegaralanganligi sharoitida aholi iste’moli uchun tayyor mahsulotlarning yetishmasligi, shuningdek, iste’molchilar uchun uning yuqori sifatini ta’minlash muammosi yanada kuchaymoqda.

Ushbu muammoni hal qilishda sun’iy intellektning zamonaviy texnologiyalari muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin. Hozirgi vaqtda ushbu vosita iqtisodiyotning barcha sohasida keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarini qishloq xo‘jaligida va u bilan tutash bo‘lgan sohalarda ham qo‘llash uchun alohida to‘siqlar mavjud emas. Ushbu texnologiya ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirishga ko‘maklashadi, shuningdek, katta hajmli tuzilmaga ega bo‘lmagan ma’lumotlarda yashirin bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi.

Huquqiy asosni yaratish dolzarb

Qayd etish joizki, sun’iy intellektni ijtimoiy va boshqa sohalarga joriy qilishda shaxsga doir ma’lumotlar daxlsizligi, ularni saqlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki sun’iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlari, ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar va yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo‘lib, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlar masalasi hamda sun’iy intellektdan siyosiy va buzg‘unchi maqsadlarda foydalanish xavfi dolzarb hisoblanadi.

Ayrim davlatlarda sun’iy intellekt va AKTdan fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash va siyosiy maqsadlarida foydalanilmoqda, degan ayblovlar yangramoqda. Shuning uchun yuqori texnologiyadan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishda bu masalalarga ham alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq.

Xo‘sh, sun’iy intellektning global xavfsizlikka qanchalik ta’siri bor? Ushbu masala 2023-yil 18-iyul kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik kengashida muhokama qilindi. BMT Bosh kotibi Xavfsizlik kengashining sun’iy intellektni rivojlantirishga bag‘ishlangan majlisida so‘zga chiqib, xalqaro hamjamiyatni ushbu “noodatiy texnologiya” rivoji ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rishga chaqirdi.

Gap shundaki, sun’iy intellekt texnologiyalarining barcha shakl va turlari beqiyos darajada tezkorlikda va juda keng ko‘lamda tarqalmoqda. Sun’iy intellekt chatboti turli savollarga javob qaytarishi, dasturchilar uchun kod yozishga yordamlashishi, talabalar uchun kurs ishlarini yozib berishi mumkin. Mazkur bot, hatto she’r va insholar ham yoza oladi. Shu bois keng jamoatchilikda ushbu texnologiya kopirayterlar, jurnalistlar, maktab o‘qituvchilari va boshqa soha vakillarini ishsiz qoldirishi mumkin degan qo‘rquv paydo bo‘lgan.

Ayniqsa, “ChatGPT”ning insholar yozish qobiliyatidan o‘qituvchilar ko‘proq tashvishga tushmoqda. Misol uchun, rivojlangan davlatlarda talabalar allaqachon bot tomonidan yozilgan insholarni o‘z ijod mahsuli sifatida taqdim qilishni boshlagan. Lekin sun’iy intellektning eng katta muammolaridan biri ham aynan shu – tom ma’nodagi ijodkorlik iqtidorining mavjud emasligi bo‘lib qolmoqda.

Hozir dunyodagi hukumatlar, yirik kompaniya va tashkilotlarning deyarli barchasi sun’iy intellektni rivojlantirish sohasidagi strategiyalar bo‘yicha ish olib bormoqda. Ammo hech kim, hatto sun’iy intellektni ishlab chiqqanlarning o‘zlari ham bu aql bovar qilmas texnologiya yutug‘i oxir-oqibatda nimalarga olib kelishi ehtimoli haqida aniq tushunchaga ega emas.

Shuning uchun mavjud vaziyatdan kelib chiqib, sun’iy intellekt rivojining tub mazmun-mohiyati va qamrovini imkon qadar chuqur anglagan holda ish tutgan ma’qul. Terrorchilik, jinoyatchilik, kiberhujumlar – mabodo sun’iy intellektdan ayni shu yovuz maqsadlar yo‘lida foydalanilsa, bu global xavfsizlik uchun o‘ta jiddiy oqibatlarga olib keladi. Sun’iy “aql”ning nosoz tizimlari tashvishlarga sabab bo‘layotgan yana bir yirik muammodir. U ezgulikka ham, yomonlikka ham xizmat qilishi mumkin bo‘lgan juda ulkan salohiyatga ega.

Vaziyatni nazoratga olish oson kechmaydi

Ixtirochilarning o‘zlari ham oldinda insoniyat sun’iy intellekt bilan bog‘liq yanada yirik, halokatli va kutilmagan tahdidlarga duchor bo‘lishi mumkin, deb bong urmoqda. Agar biz ana shu tahdidlarni bartaraf etish choralarini ko‘rmas ekanmiz, hozirgi va kelgusi avlodlar oldida o‘z burchimizni ado etmagan bo‘lamiz. Albatta, vaziyatni nazoratga olish oson kechmaydi, chunki bunga xalal beradigan bir qancha omillar mavjud.

Jumladan, sun’iy intellektning ayrim modellari allaqachon keng jamoatchilik tasarrufida; ularning tarqalishi ko‘lamini kuzatib borish imkonsiz; qolaversa, sun’iy intellekt sohasida xususiy sektor yetakchi o‘rinda turibdi. Shuningdek, sun’iy intellekt va AKTni joriy qilishda shaxsga doir ma’lumotlar va shaxsiy hayotga oid huquqlar hamda ulardan milliy xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida foydalanishda muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Chunki yolg‘on axborot yaratuvchilar hamisha bo‘lgan. Texnologiyalar imkoniyatlaridan, tabiiyki, ular ham foydalanadi. Sun’iy intellekt yordamida haqiqiysidan ajratib bo‘lmas yoki shunga yaqin yolg‘on ma’lumotlar yaratiladi. Masalan, yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda taniqli shaxslar, tadbirkorlarning yuzlari va ovozlarini ishlatib, ularning qiyofasida odamlardan aldov yo‘li bilan pul undirish holatlari bo‘ldi. Ya’ni “Biz sizga ko‘p daromad qilish yo‘llarini o‘rgatamiz, buning uchun shu havolaga o‘ting va men sizga arzimagan pul evaziga qanday boyiganimni o‘rgataman”, degan videolarni ko‘ryapmiz.

Afsuski, ko‘pchilik bilmagani va ma’lumotlarni tekshirish imkoni bo‘lmagani uchun aldanib, katta pulga tushib qoldi. Hozir biz shunaqa zamonda yashayapmizki, har bir ko‘rgan narsamizni, albatta, tekshirishimiz kerak. Sun’iy “aql”dan yovuz va axloqqa zid xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik uchun ilmiy-tadqiqot institutlari, o‘quv markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Mamlakatimizda sun’iy intellekt imkoniyatlari va texnologiyalarini ijtimoiy himoya dasturlarida, sog‘liqni saqlash, ta’lim, media, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va sanoatda qo‘llash zarurati mavjud bo‘lib, tegishli dasturlash yo‘nalishlaridagi yetakchi mahalliy mutaxassislar va xorijiy kompaniyalarni bu ishga jalb qilish maqsadga muvofiq. Ammo sun’iy “aql” mahsulidan ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga putur yetishiga yo‘l qo‘ymasligimiz ham ustuvor vazifadir.

G‘ofurjon ZOHIDOV,
Qo‘qon universiteti direktori, dotsent.

20-noyabr – Butunjahon bola kuni

HAR BIR BOLA MANFAATLARI USTUVOR

Bugun globallashgan dunyoda bola huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu, birinchi navbatda, bola huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalar ishlab chiqish, bola huquqlari himoyasi bo‘yicha maxsus nazorat organi tuzish, davlatlarning milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilyapti.

BMT 1954-yilgi rezolyutsiyasida barcha mamlakatga 20-noyabrni Butunjahon bola kuni sifatida nishonlashni tavsiya etgan. Keyingi yillarda ushbu sana munosabati bilan O‘zbekiston shaharlaridagi tarixiy va zamonaviy obyektlar ko‘k rangda yoritiladi. Bundan maqsad – jamoatchilik e’tiborini bola huquqlari masalasiga qaratish.

Bola huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalasi O‘zbekiston uchun doim ustuvor maqsadlardan biri bo‘lib kelmoqda. Aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qilgan mamlakatimiz uchun bola huquqlarini har jihatdan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng birinchi bo‘lib, ya’ni 1992-yil 9-dekabrda inson huquqlari sohasidagi xalqaro shartnomalarning ichida Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilishi buning yaqqol namunasidir.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilar ekan, “Hech bir bola e’tibordan chetda qolmaydi” tamoyiliga amal qilinayotir.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha kafolatlar kuchaytirildi. Bu borada davlatning majburiyatlari kengaytirildi.

Bola huquqlarini ta’minlashning kafolatlariga qaratilgan konstitutsiyaviy normalar fuqarolarimiz takliflari asosida milliy va xalqaro tajriba, ekspertlarning fikrlari, shuningdek, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida aks ettirilgan xalqaro standart – “bolaning eng yaxshi manfaatlari” tamoyilini hisobga olgan holda kiritildi.

Bu hali hammasi emas. Mamlakatimizda majburiy va bolalar mehnatiga qarshi kurashishning tashkiliy mexanizmlari yaratildi. Bolalar mehnatiga barham berishning qonunchilik asoslari kuchaytirildi. Ko‘rilgan choralar yurtimizda bolalar mehnatining har qanday shakllariga barham berishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining qator bandlari bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratildi. Unda bolalar himoyasiga bag‘ishlangan ustuvor yo‘nalishlar va ular manfaatlarini birinchi navbatda ta’minlash prinsipini qonunchilik va amaliyotga yanada samarali joriy etish hamda Bola huquqlari bo‘yicha vakilning (Bolalar ombudsmani) huquqiy maqomi va faoliyatini takomillashtirish belgilandi.

Sohadagi islohotlarni muvofiqlashtirib borish maqsadida mamlakatimizda Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili lavozimi joriy qilindi hamda uning huzurida Bola huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoatchilik kengashi tuzilgani ayni muddao bo‘ldi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bolalar huquq va manfaatlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘ndan ortiq chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Jumladan, 2024-yil 14-noyabr kuni “Bolalarni barcha turdagi zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun imzolandi. Mazkur hujjatga asosan bolalar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari kuchaytirilmoqda. Shuningdek, zo‘ravonlikning barcha shakli, jumladan, jismoniy, jinsiy, ruhiy, g‘amxo‘rlik qilmaslik, ekspluatatsiya va qo‘rqitish (bulling) taqiqlanadi va ta’qib qilinadi. Xususan, zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxs tegishli vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilishi, maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam olishi mumkinligi belgilandi. Qonun bilan birinchi marta zo‘ravonlikdan jabrlangan bolalarga himoya orderini berish mexanizmi joriy etilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda bola huquqlarini ta’minlash hamda ularni har tomonlama himoya qilish uchun xalqaro standartlarga asoslangan huquqiy va institutsional baza shakllangan, desak, ayni haqiqat. Mamlakat o‘zining xalqaro majburiyatlariga, jumladan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga muvofiq qabul qilingan majburiyatlarga sodiqdir. Buni yurtimizdagi islohotlar yaqqol tasdiqlab turibdi.

Raxshonaxon ZIYOVIDDINOVA,
Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) ish yurituvchi kotibi.

SAFARDAGI MUHIM G‘ALABA

milliy terma jamoamizni Jahon chempionatiga yanada yaqinlashtirdi

Futbol bo‘yicha Kanada, Meksika va AQSH yashil maydonlarida tashkil etiladigan “Jahon chempionati – 2026” saralashining 3-bosqich Osiyo qit’asidan o‘rin olgan bahslarning 6-tur bellashuvlari bo‘lib o‘tdi.

Futbol

“A” guruhida qatnashayotgan O‘zbekiston milliy terma jamoasi o‘z o‘yinlarini Laos mamlakatining poytaxti Vyentyan shahrida o‘tkazayotgan Koreya Xalq Demokratik Respublikasi terma jamoasiga qarshi saf tortdi. Bir tur oldin Qatarga 2:3 hisobida mag‘lub bo‘lgan Srechko Katanes shogirdlarini mazkur o‘yinda faqat g‘alaba qoniqtirar edi. Negaki, g‘alaba qozonsak, yana hammasi joyiga tushib, mundialga chiqish uchun qulay imkoniyatni saqlab qolardik...

Bellashuv O‘zbekiston milliy terma jamoasining ketma-ket hujumlari bilan boshlandi. Shunday vaziyatlardan biri 44-daqiqada samara keltirdi. A. Fayzullayev jarima maydoni tashqarisidan zarba yo‘llab, darvozani ishg‘ol qildi. Hisob 0:1. Ikkinchi bo‘lim futbolchilarimiz uchun ancha asabiy tarzda o‘tdi. Chunki koreyalik futbolchilar butun jamoa bo‘lib, hujumga tashlandi. 83-daqiqada U. Eshmurodov qo‘l bilan o‘ynagani uchun hakam tomonidan qizil kartochka bilan jazolandi va darvozamiz tomon penalti belgilandi. Posbonimiz O‘. Yusupov esa mazkur 11 metrlik zarbada ajoyib seyvni amalga oshirdi.

Shu tariqa futbolchilarimiz muhim 3 ochkoni qo‘lga kiritdi va ochkolar sonini 13 taga yetkazib, guruhdagi 2-pog‘onani mustahkamlab oldi.

Guruhdagi qolgan ikki o‘yinda quyidagi natijalar qayd etildi: Qirg‘iziston – Eron 2:3, BAA – Qatar 5:0.

Sunnatilla ISLOMOV
(“Xalq so‘zi”).

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 23.40 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6